

**Zarbli cholg'ularning kelib chiqishi  
va ularni O'zbekistonda shakllanish tarixi**

*Samatov Temur Alisher o'g'li*

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi*

*Botir Zokirov nomidagi MESI o'qituvchisi.*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada Ovro'pa damli cholg'ularini O'zbekistonga kirib kelishi bilan birgalikda qadimgi davrlardan O'rta Osiyoda mavjud milliy damli va zarbli cholg'ular, ularning kelib chiqishi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *membrafon, idiafon, qadimgi Xorazm, sanj, tarelka.*

Damli cholg'ular Eramizdan avvalgi III-I asrlarda ham naysimon, tilli va karnaysimonlarga tasniflangan. Qadimgi Misr, Bobil va boshqa Sharqmamlakatlarda damli cholg'ular haqida ma'lumot beruvchi tasviriy san'at asarlari mavjud bo'lib, ular haykalchalar va arxeologik topilmalarda o'z aksini topgan. Qadimgi Xorazm hududidagi «Qo'y qirilgan qal'a» (miloddan oldingi IVIII asr), «Tuproq qal'a» (I-III asr), «Qirq qiz qal'a» (V-VI asr) istehkomlaridan topilgan nay, mizmar, surnay, daf va nog'oraga o'xshash asl nomlari saqlanmagan cholg'u sozlari ushlagan mutriba ayol va erkaklar tasvirlangan tangachalar, ganch haykalchalar hamda Ayritomdan topilgan haykalchalardagi cholg'ular tasviridan biz ularning qaysi turga mansubligini aniqlashimiz mumkin.

Ammo ularning o'sha paytda qanday atalgani ma'lum emas. Ya'ni nomlari hozirgacha saqlanib qolmagan. Eramizning VII-X asrlariga kelib arablar istilosi bilan birga yangi an'analar taraqqiy topa boshlaydi. Sharq xalqlarida inson nafasi ya'ni – dami ilohiy va shifobaxsh deb qaralgan. Bunday qarashlar islomdan oldingi otashparast, kohin va qom(shaman)larda ham bo'lgan. Bu haqda Qur'oni Karimning «Yosin» surasi 51-oyatida «Va nufixa fis-suri faziahum mina-lajdasi ila robbihim yansilun» manosi: «qiyomat soati kelib farishta Isrofilning suri chalinishi

bilan banogoh ular qabrlaridan parvardigorlari (huzuriga hisobkitob uchun) sugʻurilib chiqurlar», deyiladi. Bunda nufixa – puflanmoq, maʼnosida boʻlib, nafas yaʼni puflash orqali oʻliklar tirilishi aytilmoqda. Bu fikrni quvvatlagan holda Abdurahmon Jomiy: Maʼni samoʻ ki mikunad, fakih, Gʻofil az sur va nufihat fih. Maʼnosi: ey fakih, saʼmoni (musiqani) man qiluvchilar sur va unga puflanishidan gʻofildurlar deb, nafas orqali nagʻma-kuy hosil qilinib, u insonga jon bagʻishlashini gʻofil va johil bandalar bilmasliklarini yana bir bor taʼkidlaydi. Bu fikrlarni tilshunos olim Nafas Shodmonov «Tafakkur» jurnaliga yozgan «Musiqqa bu uygʻonish demak» maqolasida yanada rivojlantirgan.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa sanʼatida dastlabki zarbli (membranofon) cholgʻular eramizdan avvalgi oʻn uchinchi ming yillikda paydo boʻlgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholgʻular qadimgi mehnat qoʻshiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholgʻular paydo boʻldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni taʼkidladilar, shovqinli cholgʻular taʼsirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari oʻziga hos takrorlanmas goʻzal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholgʻular eng qadimgi cholgʻular turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlari bilan bogʻliq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida oʻzining tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati jihatidan xilma-xil zarbli cholgʻularning turlari shakllangan. Taniqli olima T.Vizgoning maʼlumotiga koʻra mudovara (tarelka) harbiy cholgʻular qatoridan ham oʻrin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham miloddan uch ming yil oldin maʼlum boʻlsa-da, zamonamizgacha xuddi doyra cholgʻusidek oʻz shaklida yetib kelgan. Zarbli cholgʻular - doira, debu, daff, daz, dov, sanj, gʻoʻlachalar miloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniylar davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan takomillashib bizgacha yetib kelgan. Doira va sanj cholgʻusining tarixi ijro etilish usullari haqida musiqashunos olima T.Vizgo fikr yuritib, sanj cholgʻusining oʻrtasidan tasma oʻtkazilib chalinganligini va hozirgi davrda ham xuddi shunday uslubda ijro etilishini taʼkidlaydi. Samarqandning Urgut tumani Moʻminobod

qishlog'idan topilgan eramizdan besh ming yil avval suyakdan ishlangan va beshta barmoq bilan bosib ijro etiladigan teshikka ega bo'lgan nay qisman saqlangan bo'lib, o'sha davrda bunday tovush ko'lamiga ega bo'lgan cholg'uda qanday kuylar ijro etilganligini tasavvur qilish mumkin.

Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to'liq cholg'u sifatida yetib kelmagan bo'lsa-da, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg'ular paleolit davriga to'g'ri keladi. Shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi.

O'zbekiston hududida asosan ikki xildagi cholg'u ansambllari keng tarqalgan bo'lib, bulardan birisi damli va zarbli cholg'ular (surnay, karnay, nog'ora, doyra)lardan tashkil topgan va ikkinchisi torli cholg'ular hamda nay, qo'shnay, bulamon kabi damli cholg'ular va doyra ishtirokidagi ansambllardir. Harbiy damli cholg'ular orkestrlari tarkibida xizmatdagi askarlar farzandlari va yetim bolalar orkestr tarbiyalanuvchilari sifatida xizmat qilganlar. Ularni yetakchi sozandalar turli cholg'u sozlarda chalishga o'rgatganlar. Ba'zi orkestrlarda damli cholg'ulardan tashqari torli sozlar ham o'rgatilgan. Bu bilan, sozandalar ham damli, ham simfonik, orkestrlarda ijrochi sifatda qatnashishlari mumkin bo'lgan.

Harbiy damli cholg'ular orkestrlari o'z repertuari ichiga mashhur opera va operettalardan ommabop uvertyuralar, fantaziya va poppurilarni qamrab olgan edi. Toshkentda so'zsiz kinoning paydo bo'lishi bilan bu orkestrlar ko'pincha tomosha boshlanishidan oldin kuylar ijro qilgan. Askarlar orasidagi savodsizlikni tugatish uchun Pushkin jamiyati «Xalq o'qishlari» kechalarini tashkil qilar edi. Damli cholg'ular orkestrlari esa ko'pchilikni mashhur rus yozuvchisining asarlarini o'qishda qatnashish uchun chorlar edi. Bunda orkestr repertuarida o'qiladigan asar xarakteriga mos tushadigan kuyni tanlash kapelmeyster tomonidan yaxshilab o'ylab ko'rilar va topib chalinar edi. «Xalq o'qishlari» keng xalq ommasini rus madaniyati bilan tanishtirish uchun, ta'sirchan tadbirlardan biri bo'lib, Turkistonning boshqa shaharlarida ham o'tkazilar edi. Toshkent shahar ziyolilari tomonidan yozda shahar bog'ida, harbiy kengash bog'ida va qishda harbiy kengash zalida sayil va

kechalarda doimo damli cholg'ular orkestri yangrab turar, hali Turkistonda professional musiqa ta'limi bo'lmagan davrda harbiy orkestrlar va ijrochilik guruhlarining madaniy-ma'rifiy va orkestr ijrochiligini rivojlantirishdagi targ'ibot ishlari katta ahamiyatga ega bo'lgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Алимбаева К., Ахмедов М. Ўзбек халқ созандалари. Т., ЎзДавНашр. 1959.
2. Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана. М., «Музгиз», 1933.
3. Беляев В. «Музыкально этнографические работы А.Ф.Эйхгорна в Узбекистане». -В кн.: «Музыкальное фольклористика в Узбекистане». Т., 1963.
4. Вызго Т. «Первые музыкальные учебные заведения». -В кн.: «История Узбекской советской музыки». Т. I. Т., 1972.
5. B.S.Salixov, B.Matyoqubov. «O'zbekistonda damli va cholg'ular ijrochiligi tarixi». Toshkent 2007.